

## SHAXS SHAXSNING TUZILISHI VA NAZARIYALARI

*Akmaliddinova To'linoy Akmaliddin qizi*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Pedagogika fakulteti*

*pedagogika ta'lim yo'nalishi I-bosqich talabasi*

**Tel raqami** :+998936646696

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada shaxs haqida tushunchalar. Shaxsning nazariyalari, shaxs shakllanishi va rivojlanishi shaxsning asosiy kontsepsiya va qonuniyatlari umumiy qilib olganda shaxs haqida so'z yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Shaxs, shaxs haqida, shaxs nazariyalari, shaxsning rivojlanishi, shaxsning qonuniyatlari, shaxsing tarkibiy qismlari.*

**Kirish:** Mehnat tufayli xayvonot olamidan ajralib chiqqan va jamiyatda rivoj topayotgan boshqa odamlar bilan birgalikda faolyatini amalga oshirayotgan va ular bilan muloqotga kirishyotgan kishi asta sekin shaxsga aylanadi. Odam dunyoga odam bo'lib keladi. Bu takid yuzaki qilib qaragandagina isbot talab qilib bo'lmaydigan haqiqat va qayta qayta takrorlab kelinadigan ibora sifatida ko'riladi. Gap shundaki bu o'rinda xususan insoniy belgilar bilan fazilatlarining rivojlantirish uchun tabiiy shart-sharoitlar paydo bo'lishi genetik jihatdan oldindan belgilab qo'yilganligi ta'kidlanadi.

Dunyoga kelayotgan chaqaloqning gavda tuzilishi unda tik yurish uchun imkoniyatning mavjudligini taqazo etish miyyasining tuzilishi, aql xushining rivojlanishi uchun imkoniyat tug'diradi. Bular bilan chaqaloq o'z imkoniyatlari yig'indisiga binoan odam har qanday xolatda ham bu fazilatlar yig'indisining sohibiga aylana olmaydigan odam bolasidan farq qiladi. Shunday qilib yuqorida aytilganlar orqali chaqaloqning inson zotiga mansub ekanligi tasdiqlanadi, va bu fakt individ tushunchasini qayd etadi.

**Asosiy qism:** Shunday qilib konkret kishini individ deb ataganda biz juda ko'p narsalarni aytgan bo'lamiz. Aslini olganda bu bilan uning potensial ravishda

inson ekanligi aytiladi. Uning bundan keyingi hatto juda ham umumiy tarzda ta'rifi bayon etilishi va izohlanishini taqazo qiladi. Indiv sifatida dunyoga kelgan kishi, alohida ijtimoiy fazilatlar kashf etadi, shaxs bo'lib yetishadi. Indiv hali bolaligidayoq tarixan tarkib topgan ijtimoiy munosabatlar tizimiga jalb etadi. U bu tizimni allaqachon uchratgan edi. Psixologiyada indiv tomonidan amaliy faoliyat na munosabat jarayonida hosil qilinadigan hamma ijtimoiy munosabatlarning indivga ta'sir o'tkazish darajasi va sifatlarini belgilaydigan tizimli tarzidagi ijtimoiy fazilat shaxs tushunchasi bilan ifoda etiladi. Agar barcha jonli mavjudodlardan o'laroq, inson nasl nasabining mohiyati barcha ijtimoiy munosabatlar majmuidan iborat bo'lsa, u holda har bir konkret kishining mohiyati ya'ni shaxs tarzidagi alohida indivga hos abstrakt subyekti sifatida, u jalb etadigan konkret ijtimoiy bog'lanishlar va munosabatlar undan tashqaridadir. Indiv va shaxs tushunchalarining o'xshashligi emas balki birligi haqidagi fikr quyidagicha tarzda o'rta qo'yilishi mumkin. Shaxs hisoblanmagan indivning mavjud bo'lishi yoki aksincha indivning konkret sohibi sifatida undan tashqarida va usiz mavjud bo'lish fakti ko'rsatilishi mumkinmi. Taxminiy tarzda fi yuritilgan taqdirda unisi ham, bunisi ham bo'lishi mumkin. Agar kishilik jamiyatidan tashqarida voyaga yetganda indivni xayolan tasavvur qilinadigan bo'lsa, bu holda u birinchi bor odamga duch kelib, bialogik jonzotga hos indiv xususiyatlaridan bo'lak hech qanday, yuqorida aytilganidek, kelib chiqishi jihatidan hamisha ijtimoiy tarixiy kasb etadigan shaxsiy fazilatlarga ega ekanligini nomoyon qiladi.

Darhaqiqat shaxs tipologiyasi, shaxsning tipologik tahlil qilishning, eng nozik ibratli jihatlarini cheklab o'tish, u haqida yetarli darajada to'la tasavvurga ega bo'lishni xoxlasak uning eng umumiy tasvirini umumulashgan tarzda ta'kidlab o'tish lozim. Shaxsning tuzilishi bilan bog'liq bo'lgan ikkinchi masala esa shunday, tuzilishning bir qancha tarkibiy qismlarga ajratishni taqazo qiladi. Ushbu bo'laklarning yig'indisi yaxlit inson shaxsini vujudga keltirish. Hozirgi zamon jahon psixologiyasida biyalogik tabiiy va ijtimoiy sotsial omil faktorning, voqeylikning ta'siri ostida shakllangan inson shaxsida ikkita muhim qism

bo'lganligini tasdiqlovchi nazariya yuksak movqeyni egallab turadi. Mazkur nazariyaga binoan - yunoncha ichki degan ma'noni anglatadi hamda qismlarga ajratiladi. Shaxsning tuzilishiga, birinchi navbatda uning, individualligining kishi ehtirosining, ichki qiyofasining, qobiliyatlarining tuzilishida mujassamlashgan, shaxs psixologiyasini anglab yetish uchun zarur, lekin yetarli bo'lmagan tizimli tarzda tuzilishi kiradi. Shu tariqa shaxs tuzilishining birinchi tarkibiy qismi alohida namoyon bo'ladi. Xususan bular o'zi nima: guruh tarzidagi ko'rinishlarni yoxud shaxsiy ko'rinishlar i? Shaxsning ta'rifi va mavjudligining o' individning "teri ichida qolmasdan" balki individlararo "bo'shliqqa" olib chiqilishi bilanoq individ va shaxs tushunchalarini aynan bir biriga o'xshatish natijasida hosil bo'ladigan soxta muqobiliga barham berilgan bo'ladi. Indraindivid va interindivid kichik tizimli shaxsning o'zining manoyon qilishning barcha jihatlarini aks ettira olmaydi. Shaxsning tuzilishi tarkib toptiradigan uchinchi qismi metaindivid "individning ustki ko'rinishi" kichik tuzilishin ham alohida ko'rsatish imkoniyatlari ham mavjuddir. Bunda shaxs individning, organik gavdasidan tashqari chiqarilib qolmasdan balki uning boshqa individlar bilan "shu yerda va endilikda" mavjud bo'lgan aloqalaridan ham tashqarida joylashtiriladi. Psixik rivojlanish va o'zgarishlarga sabab bo'ladigan kuchlar o'rtasida munosabat qonunlarini o'rganish psixologiya fanining muhim va dolzarb muammolaridan biri. Inson shaxsining psixik rivojlanishi va uning shakllanishi murakkab tadqiqot jarayonidir. Zero uning o'ziga xos xususiyatlari qonuniyatlari asosli ilmiy bilish o'quvchi shaxsiga pedagogik jihatidan ta'sir ko'rsatishning zarur shartidir. Inson bisotsial mavjuddir.

Uning birligi, bir tomondan kishining psixik, tug'ma ravishda tashkil topgan xususiyatlari (masalan ko'rish va eshitish sezgilarning shuningdek, oliy berv tuzilishining o'ziga xos xususiyatlari) ikkinchi tomondan esa faoliyatning oliy subyekti va ijtimoiy taraqqiyotning faol ishtirokchisi sifatida uning xulq atvori (masalan aqliy odatlari) xususiyatlarida namoyon bo'ladi. Biogenetik ta'limot inson qobiliyatining rivojlanish darajasi (chunonchi imkoniyatlarning chegarasi uning eng yuksak nuqtasi) taqdir tomonidan belgilab qo'yilganligi

ko'rishimiz mumkun. Avstraliyalik psixolog K. Byuler bolalarning faqat aqliy taraqqiyotigina emas, balki axloqiy rivojlanishi ham nasliy tomondan belgilangani deb ta'kidlaydi. Amerikalik pedagogik va psixolog Dj, Dyui - inson tabiatni o'zgatiririb bo'lmaydi, odam irsiyat vositasida hosil qilgan ehtiyoqlar va psixik xususiyatlari bilan tug'iladi. Bu ehtiyoqlari va xususiyatlar tarbiya jarayonida namoyon bo'lib ba'zida o'zgarishi, tarbiyaning miqdorini belgilab berish mezonidir deb hisoblaydi.

**Xulosa:**xulosa qilib shuni aytamanki bu mavzuda inson butun borlig'ini yoritilgan. Toki individ bo'lib tug'ilgandan toki shaxs bolgunigacha. Bunda insonni tug'ilishi voyaga yetishi,hatti xarakatlari aqliy faolligi ham keltirilgan. Bundan tashqari inson xulq atvori umumiy qilib aytganda inson tafakkuri, ongi xotirasi xayoli hamda sezish qobilyatlari. Individ qanday xislatlarga ega bo'lsa to'liq shaxs bo'lishi yani xulq atvoriga egaligi nima yaxshi nima yomon sezishi ajrata olishi shunga aqli yetishi. Psixik rivojlanish va o'zgarishlari nimalar sodir bo'lishi hamda ruhiyati haqida so'z boradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. D. G'. Muhammedova., N. M. Mullaboyeva., I. A. Rasulov. "Umumiy psixologiya" "Mumtoz so'z" 2018
- 2.M. G. Davletshin,. S. M. To'ychiyev. Umumiy psixologiya. T, :2002
- 3.Umumiy psixalogoya. M. V. Petrovskiy Moskva 1995
- 4.<https://kitobsevar.u>